



“ILM-FAN MUAMMOLARI MAGISTRANTLAR TALQINIDA”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



DOAJ DIRECTORY OF
OPEN ACCESS
JOURNALS




WWW.KSPI.UZ

+99890-974-17-65

1529314@BK.RU

+99891-152-93-14



“ILM-FAN MUAMMOLARI MAGISTRANTLAR TALQINIDA”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

25.04.2024

2-qism

zenodo



Qo‘qon 2024

SELIM ILERI HIKOYALARIDA DAVR VOQELIGINING QAHRAMON RUHIYATIDA AKS ETISHI

Abdulxayeva Dilnoza Abdukodirovna
TDSHU magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy turk hikoyachiligi rivojiga o‘z hikoyalari bilan katta hissa qo‘shib kelayotgan Selim Ilerining “Kuzgi urush” (“Güzün Savaş”) hikoyasida davr voqeligining qahramon ruhiyatida aks etishi tadqiq etiladi. Selim Ileri o‘z hikoyalarida murakkab davr muammolari qarshisidagi zamondosh turk insonining ruhiyatini, botiniy olamini, qalb kechinmalarini, his-tuyg‘ularini, qayg‘u-iztiroblarini, insonlardagi o‘zaro befarqlik va mehrsizlik muammolarini, shaxsning yolg‘izligi va inqirozini turli badiiy psixologik usullarda mohirona tasvirlaydi.

Kalit so‘zlar: turk adabiyoti, hikoya, ruhiyat, davr, qahramon, tahlil.

Kirish.

1960-yillarda Turkiya jumhuriyati hayotida ko‘plab siyosiy, iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. [8] O‘lkadagi bunday jarayonlar millat ahli ruhiyati va o‘zaro munosabatlar tarzlariga o‘zgarishlar – yangilanishlar olib kiradi. Bu o‘zgarishlar har sohada bo‘lgani kabi adabiyotda ham kuzatiladi. Yozuvchilar soni ortgan bu yillarda, mavzular ko‘lami kengayib boradi. Bu yillarda adiblar qahramon tanlashga yangicha yondoshib, qahramonning ruhiyatini, ichki olamini o‘z asarlarida turfa xil usullarda aks ettira boshlaydilar. [2.B.192]

Bu davrda asosiy e‘tibor odamning o‘ziga qaratilib, u ishchi kuchigina emas, balki betaktor ruhiyat, nozik ko‘ngil egasi ekanligi ta’kidlanadi. Jamiyatning turli tabaqa vakillari hayoti va ularning his-tuyg‘ulari hikoyalarning bosh mavzusiga aylanadi. Har qanday shaxs, inson jamiyatning asosini tashkil qilar ekan, uning ruhiyatidagi bunday evrilishlar badiiy adabiyotda, xususan, milliy hikoyachilikda ham o‘ziga xos tarzda badiiy ifodasini topa boshlaydi. 60-yillar turk hikoyachiligida Leyla Erbil, Naziha Merich, To‘mrish Uyar, Firuzan, Adnan O‘zylchinar, Selim Ileri, Demir O‘zlu, Sevinch Choqum singari yozuvchilar ijodida davr kishisi ruyihatining turli jihatlari noan’anaviy tarzda badiiy talqin qilina boshlaydi.

Maqsad va vazifa: Selim Ileri hikoyalarida davr voqeligining qahramon ruhiyatida aks etishini tadqiq etish, adibning qahramon ruhiyatini badiiy ifodalashdagi davr va qahramon psixologiyasi yo‘nalishida yozilgan “Kuzgi urush” (“Güzün Savaş”) hikoyasini tahlil qilishdan iborat.

Usullar: Selim Ileri hikoyalarida davr voqeligining qahramon ruhiyatida aks etishini o‘rganishda adabiy-estetik va psixologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza: Ma’lum bir davrda yashagan insonning ruhiy holatini badiiy aks ettirish uchun ijodkor albatta u yashagan davr va unda kechayotgan dolzarb

masalalarga murojaat qilmasligining iloji yo‘q. Bunda adabiyotshunos olim P.Kenjayeve ta’kidlaganidek: “Hikoya janrida qahramon xarakteridagi betinim o‘zgarishlarni tasvirlash, uni davr bilan bevosita bog‘liqlikda aks ettirish boshqa janrdagi asarlarga nisbatan osonroq.” [3.B.49]

Har qanday inson o‘zi yashayotgan davr va unda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar bilan hamohang tarzda yashaydi, u mana shu davr insonlari bilan munosabatda bo‘ladi, jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va an‘analarni qabul qilib, ularga amal qiladi. Ularni qabul qilmagan taqdirda bunga qarshi chiqadi, bosh ko‘taradi. Bu albatta, shaxsning ruhiyatiga, his-tuyg‘ulariga va ichki olamiga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi.

Selim Ileri ijodiy faoliyatini boshlagan yillar xuddi mana shu yillarga teng keladi. Yozuvchi murakkab davrda yashayotgan zamondoshlari ruhiy holatini, his-tuyg‘ularini, dardu-alamlari va orzu-armonlarini, qismatini tasvirlaydi. Yozuvchi hikoyalarida qalbida bir dunyo orzu-havaslar bilan yashayotgan, o‘z taqdiri uchun kurashga bel bog‘lagan, biroq qismat oldida chorasiz va betadbir qolgan, lekin kelajakka umid ruhi ustun bo‘lgan insonlarning ichki olamini aks ettiradi. Yozuvchi hikoyalarini o‘qigan kishiga u hayotdagi barcha baxtsiz, yolg‘iz, tark etilgan va chorasiz odamlarni bir joyga yig‘ib, asariga kiritganday tuyuladi. Hikoya qahramonlari alg‘ov-dalg‘ov va talotumlarga yo‘liqqan bir yurt va bir davrning vakillari hisoblanadi. [6.B.329.]

Fojeaviy voqelikning aniq tasviri asosida yuzaga kelgan “Kuzgi urush” (“Güzün savař”) hikoyasi adib ijodida alohida ahamiyatga ega. Yozuvchining 1968-yilda yozgan ushbu hikoyasida mafkuraviy munosabatlarga qarshi porloq kelajak umidida bosh ko‘tarib chiqqan inqilobchi yoshlar va militsiya xodimlari to‘qnashuvi bayon qilinadi. Hikoya qahramoni Buroq, vafot etgan do‘stlari uchun qora gulchambar qo‘yishga ketayotgan inqilobchi yoshlar safiga qanday qo‘shilib qolganini sezmay ham qoladi.

Hikoya qahramonlari Buroq, uning do‘stlari Kuzey va sevgilisi Serpil bo‘lib, bir kecha-kunduzda sodir bo‘lgan voqealar homilador Serpilning vafoti bilan yakunlanadi. Asar voqealari rivojida davr kishilarining o‘zaro begonalashuvi, befarqligi, yolg‘izligi masalalari yoritiladi. Hikoya boshida keltirilgan epigrafdan ham yozuvchi davr insonining qalb og‘riqlariga, dard-u alamlariga, chekkan azob-u iztoroblariga ishora qiladi.

“Agar kimningdir yuragi ko‘karib ketgan bo‘lsa, u yerda tog‘larday bir dubinka izi bor.” (“Kimin yüreği morsa orada bir cop izi vardır dağlarca”) [1.B.64]

Jumladan, hikoyada ushbu harakatda ishtirok etgan yoshlarning qalb kechinmalari, his-tuyg‘ulari tabiat tasviri orqali quyidagi tarzda badiiy ifodasini topadi:

“Bir necha betartib uchib yurgan barg o‘ligi kelib yopishgandi oynaga. Yo‘l bo‘m-bo‘sh edi. Koridorning boshida bir to‘p yoshlar ko‘ngli vayron yotishardi. Hatto

shiddatli yomg‘ir savalay boshlagandi.” (“Birkaç savruk yaprak ölüsü gelip yapışmıştı cama. Bomboştı yol. Koridorun ucunda bir yığın genç kırık bir yürekle yatıyorlar. Hevesli, coşkun bir yağmur serpiştirmeye başlamıştı bile.”) [1.B.68]

“Hikoyada harakatda hibsga olingan yoshlarning ruhiy holatining tasviri bilan tashqi olamning tasviri orasida uyg‘unlashuv ta‘minlangan”, - deydi adabiyotshunos S.Sayin. [5.B.189] “Badiiy psixologizmda yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita va bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o‘y-kechinmalari, his-tuyg‘ularining “ichki monolog”, “ong oqimi” tarzida yoki muallif tilidan (o‘ziniki bo‘lmagan muallif gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari. Yuz-ko‘z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi esa bilvosita psixologik tasvirdir. Shuningdek, personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan yoki boshqa biror narsa obrazidan foydalanishi mumkin bo‘ladiki, bu ham bilvosita psixologizmning ko‘rinishidir.” [1.B.48]

Hikoyada yozuvchi diqqat markaziga tortgan muhim jihatlardan yana biri bu davr kishilarining nosamimiy munosabatlari, befarqligi, shafqatsizligi bo‘lib, adib bu vaziyat qarshisidagi qahramonning ko‘nglini tushunishga, qalbining tub-tubidagi eng dardchil g‘alayonlarni anglashga va uni kitobxonga anglatishga harakat qiladi.

“Serpilning bolasi tushdi.” Parvo ham qilmagandi ayol. “Xudoga shukr, sen omon qolding-ku”, - degandi. “Joni jahannamda bunday Tahgrining!” dedi. Yuragi ko‘k, ko‘m-ko‘k, zaharli gullar bilan bezalgandi, u ortga qaytdi.” (“Serpil çocuğunu düşürdü.” Umursamamıştı kadın. “Çok şükür Tanrı’ma, sen kurtuldun ya” diyordu. “Canı cehenneme böyle Tanrı’nın!” demişti. Yüreği morarmış, yüreği mosmor, yüreği ağulu çiçeklerle bezenmiş, dönmüştü geriye.”) [1.B.71]

Hikoya qahramoni Buroqning ichki olamida kechayotgan tuyg‘ular kitobxonni ham larzaga soladi. Buroqning ruhiy holatini yozuvchi shunday tasvirlaydi:

“Taqsimda ba‘zilarida boy ba‘zilarida kambag‘al insonlar bo‘lgan mashinalar, avtobuslar to‘xtovsiz harakatlanar edi. Osmon endi hech qachon yorishmaydiganday qorong‘ulashgandi. Serpilni muzxonada qoldirganini eslagani sari uning ko‘ngli aynir, boshi aylanar edi.” (“Taksim’de otomobiller, otobüsler, aralarında kimi zengin kimi yoksul insanlar durmaksızın deviniyorlardı. Gökyüzü hiç açmayacakçasına kapanmıştı. Serpil’i buzlukta bıraktığını ansıdıkça midesi bulanıyor, başı dönüyordu.”) [1.B.72]

Shuningdek, turk tadqiqotchisi N.Chaqmaq shunday fikr bildiradi: “Hikoyaning boshida umit bilan ko‘chaga chiqqan bo‘lishiga qaramay, hikoyaning so‘nggi qismi sodir bo‘lgan Taqsim ko‘chalaridagi sahnada Buroqning o‘zini yo‘qotishi va umidsizligi hukmronlik qiladi.” [7.B.313]

Xulosa.1960-yillarga kelib Turkiya jumhuriyatida sodir bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy voqea-hodisalar mamlakat hayotida bir qator o‘zgarishlarga sabab

bo'ldi. Turk adabiyotida hikoyanavislar soni ortib, mavzular ko'lami kehgaydi. Adiblar qahramon tanlashda yangicha yondoshib, ko'proq davr kishisining ichki olamini yorita boshladilar. Selim Ilerining tahlilga tortilgan ushbu hikoyasida turk jamiyatidagi murakkab bir davr kishisining psixologik holati, muammolar girdobida qolgan shaxs iztiroblari, insonlararo befarqlik, mehrsizlik, shafqatsizlik muammolari psixologik usulda o'z badiiy ifodasini topadi. Yozuvchi qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni bevosita va bilvosita usullar bilan mohirona tasvirlab beradi. S.İleri personajlarning botiniy dunyosidagi g'alayonlarni, dardu-alamlarni to'laqonli ochib berishda ularning hatti-harakatlari, gap-so'zlari va tabiat tasviri kabi usullardan samarali foydalanadi. Adibning hikoyalari turk hikoyachiligi, turk adabiyoti taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. İleri S. Otuz Yılın Bütün Hikayeleri 1967-1997. – İstanbul: Oğlak Yayıncılık ve Reklamcılık Ltd. Şti, 1997. – 766 s.
2. Кенжаева П. XX аср турк ҳикоячилигининг тараққиёт тамойиллари. Ф. ф. д., дисс... – Т: 2017. – 271 б.
3. Kenjayeva P. Istiqlol davri o'zbek nasrida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari (Monografiya). – Toshkent: TDSU, 2020. – 124 b.
4. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 402 б.
5. Sayın S. Selim İleri'nin Hikayeleri ve Hikayeciliği. Yüksek Lisans Tezi. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili Ve Edebiyatı Anabilim Dalı. Edirne: 2006. – 225 s.
6. Tosun N. Öykümüzün Kırk Kapısı. – Ankara: Hece Yayınları, 2013. – 352 s.
7. Chaqmaq N. Selim İleri'nin İstanbul'u. Doktora Tezi. Yıldız Teknik Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı. İstanbul: 2019. – 416 s.
8. https://tr.wikipedia.org/wiki/27_Mayıs_Darbesi